

## YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 106 (1167), 2024-yil 31-may, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## MISR BILAN PARLAMENTLARARO ALOQALARNI YANADA RIVOJLANTIRISH QO‘LLAB-QUVVATLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 30-may kuni Misr Arab Respublikasi Senati raisi Abdulvahob Abdulroziq boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuv avvalida Senat raisi O‘zbekiston yetakchisiga Misr Prezidenti Abdulfattoh as-Sisining samimiy salomi va ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston bilan Misr o‘rtasidagi keng qamrovli sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Barcha darajadagi muloqot va almashinuvlar davom etayotgani mam-

nuniyat bilan qayd etildi. O‘zaro savdo hajmi, qo‘shma korxonalar soni ortib bormoqda. Misrning yetakchi kompaniyalari bilan hamkorlikda geologiya, qishloq xo‘jaligi, energetika va turizm sohaslarida kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Parlamentlararo aloqalarni yanada faol rivojlantirish, qonun chiqaruvchi organlarda do‘stlik guruhlarini tuzish, oliy darajadagi kelishuvlar ijrosi ustidan

parlament nazoratini ta‘minlash, xotinqizlar huquqlarini ta‘minlash va imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha tajriba almashish muhimligi ta‘kidlandi.

Xalqaro tuzilmalar, jumladan, Parlamentlararo ittifoq, Qo‘shilmaslik harakati va Arab parlamenti doirasida amaliy hamkorlikni davom ettirishga alohida e‘tibor qaratildi.

O‘ZA

## ICESCO BILAN O‘ZARO MANFAATLI HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH TAKLIF QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 30-may kuni Xiva shahrida bo‘lib o‘tadigan Islom hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlar turizm vazirlari yig‘ilishida ishtirok etish uchun yurtimizga kelgan Islom dunyosi ta‘lim, fan va madaniyat tashkiloti (ICESCO) bosh direktori Salim al-Malikni qabul qildi.



Ilm-fan, madaniyat, ta‘lim va turizm sohaslarida ushbu nufuzli mintaqaviy tuzilma bilan konstruktiv muloqot va samarali hamkorlikni rivojlantirishning amaliy jihatlari muhokama qilindi.

ICESCO bosh direktori samimiy qabul uchun chuqur minnatdorlik izhor etib, mamlakatimizda boy ilmiy va madaniy merosni asrab-avaylash, har tomonlama o‘rganish, saqlash va ommalashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan siyosat natijalarini yuqori baholadi.

O‘zbekiston Prezidenti tashkilot bilan o‘zaro manfaatli va jadal hamkorlikning

bugungi darajasini alohida mamnuniyat bilan qayd etdi.

2007-yilda Toshkent shahri Islom madaniyati poytaxti deb e‘lon qilingan, 2020-yilda Buxoro shahri, 2025-yil uchun esa Samarqand shahri ushbu maqomga ega bo‘ldi.

Joriy yilda Xiva Islom dunyosining turizm poytaxti hisoblanadi. Toshkent shahridagi O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida ICESCOning Islom sivilizatsiyasini o‘rganish bo‘yicha maxsus kafedrasini faoliyat yuritmoqda.

Hamkorlikning yangi yo‘nalishlari sifatida qo‘lyozmalar va boshqa tarixiy yodgorliklarni saqlash, restavratsiya qilish bo‘yicha tajriba almashish, bu boradagi loyihalarni amalga oshirish, arab tili o‘qituvchilarini tayyorlash va malakasini oshirish, xalqaro ilmiy va madaniy tadbirlarni tashkil etish belgilandi.

Amaliy sheriklikni yanada kengaytirish va qo‘shma loyihalarni ilgari surish maqsadida O‘zbekistonda ICESCOning mintaqaviy vakolatxonasini ochish masalasi o‘rganiladi.

O‘ZA

## ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO‘YICHA TAKLIFLAR MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 30-may kuni iqtisodiyot tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Yildan yilga energiya resurslariga talab oshib borayotgan zamonada ulardan oqilona foydalanish, isrofgarchilikni kamaytirishni hayotning o‘zi taqozo etmoqda.

Shu maqsadda 2024-yilda hududlarda elektr energiyasi va tabiiy gazni tejash bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar shakllantirildi. Bu maqsadli ko‘rsatkichlar ishlab chiqarishga xalal bermagan holda energiya iste‘molini samarali tashkil etish orqali muayyan hajmlarni tejashni nazarda tutadi.

Shuningdek, iste‘molchilarni energiya auditidan o‘tkazishning yangi tartibi joriy etilmoqda. Unga ko‘ra, energiya auditini faqat xalqaro standartlarga muvofiq o‘tkaziladi. Audit asosida tashkilot va korxonalar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va ularning ijrosi nazorat qilinadi.

Bu borada shaffoflikni ta‘minlash uchun energiya auditi xulosalari va undan keyin erishilgan natijalar yillik biznes-rejalarga kiritilib, kuzatuv kengashida tasdiqlanadi.

Har bir tashkilot rahbarlariga energiya samaradorligi bo‘yicha KPI joriy etiladi.

Shuningdek, iste‘molchilar tomonidan elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanish qoidalarini buzganliklari uchun amaldagi tarifga o‘svuchi koeffitsiyentni qo‘llagan holda qayta hisob-kitob qilish, iste‘molchilar tomonidan majburiy energiya auditini o‘tkazish natijasida belgilangan chora-tadbirlarning muddatida bajarilmasligi, ushbu chora-tadbirlar bajarilishidan iqtisod qilinishi

kutilgan yoqilg‘i-energetika resurslari qiymati miqdorida jarima qo‘llash tartibini joriy qilish masalasi o‘rganilmoqda.

Yana bir taklif — tashkilotlar, hududlar va ko‘chmas mulk obyektlari kesimida energiya iste‘molini reytingini joriy etish. Bunda Energetika vazirligi tomonidan energiya sig‘imi eng yuqori va eng past bo‘lganlarning “10 taligi” yuritilib, ommaviy axborot vositalarida yoritib boriladi.

Taqdimotda energiyani tejash bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar va uni amalga oshirish choralarini atroflicha muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari taqdim etilgan takliflarni aloqador vazirlik va idoralar bilan birgalikda chuqur va puxta ishlab chiqish, ko‘rsatkichlarni xalq deputatlar mahalliy kengashlari muhokamasiga kiritish maqsadga muvofiqligini ta‘kidladi.

Shuningdek, yig‘ilishda joriy yilgi kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik masalalari muhokama qilindi. Prezident mutasaddilarga tayyorgarlik ishlarini hozirdan boshlash va barcha zarur chora-tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirish, jumladan, elektr va issiqlik stansiyalari uzluksiz va barqaror ishlashi uchun zarur yoqilg‘i resurslari, butlovchi va ehtiyot qismlarning zaxiralarni shakllantirish, energetika infratuzilmalarini ta‘mirlash va modernizatsiya qilish yuzasidan qator ko‘rsatmalar berdi.

O‘ZA

## O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

## JADIDLAR MEROSI DAVLAT MUZEYINI TASHKIL ETISH TO‘G‘RISIDA

Ma‘rifatparvar jadidlarning Vatanimiz va jahon tarixidagi muhim o‘rni va ahamiyatini, milliy istiqlolimizning ma‘naviy asoslarini yaratishdagi fidoyiliklarini, ibratli hayoti va faoliyatini, boy ilmiy-ijodiy merosini chuqur o‘rganish va faol targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni yanada kengaytirish, shuningdek, 2023-yil 22-dekabr kuni o‘tkazilgan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish maqsadida:

1. Madaniyat va san‘atni rivojlantirish jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma), Madaniy meros agentligi va Buxoro

viloyati hokimligining Buxoro shahridagi tarixiy maskan — Xo‘ja Gulrez ko‘chasi 13-uy manzili joylashgan Hovli Poyon majmuasida **Jadidlar merosi davlat muze-yini** (keyingi o‘rinlarda — Muze-y) tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullansin.

2. Quyidagilar Muze-y faoliyatining **asosiy vazifalari** etib belgilansin:

jadidlik harakatiga oid mamlakatimiz va xorijdagi turli manbalar va tarixiy hujjatlarni aniqlash, to‘plash, saqlash, o‘rganish, tiklash, nusxalash, e‘lon qilish, ular asosida Muze-y fondini boyitib borish va ekspozitsiyalarni yaratish, shuningdek, madaniy-ma‘rifiy va ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish;

ma‘rifatparvar jadidlarning Vatanimiz va jahon tarixidagi muhim o‘rni va ahamiyatini, milliy istiqlolimizning ma‘naviy asoslarini yaratishdagi hisssasi va fidoyiliklarini haqqoniy yoritish, aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilish;

muze-y ekspozitsiyalarini yaratishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va mustahkamlash.

3. Belgilansinki:

Muze-y Jamg‘arma tizimiga kiradi hamda Muze-y faoliyati uning binosida qurilish-montaj ishlari yakunlanganidan so‘ng boshlanadi; Muze-y binosini mukammal ta‘mirlash, jihozlash va hududini obodonlashtirish, Muze-y

ekspozitsiyasini yaratish bilan bog‘liq xarajatlar ilovaga muvofiq ajratiladigan manbalar hisobidan qoplanadi;

Muze-y saqlash xarajatlari — Buxoro viloyati mahalliy budjeti mablag‘lari, Muze-yning o‘z daromadlari va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplanadi;

Muze-yga shtat birliklarini ajratish hamda xodimlarga ish haqi to‘lash Madaniy meros agentligi tizimidagi muze-y uchun belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

Davomi 2-beta



## YANGI O‘ZBEKISTON RUHI

## OLY TA‘LIM TIZIMIDA YANGI BOSQICH

YOSHLARGA YANGI IMKONIYAT ESHIKLARINI OCHADI, MAMLAKATNI YETUK KADRLAR BILAN TA‘MINLASHDA MUHIM QADAM BO‘LADI

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo‘ng‘irovboy SHARIPOV bilan “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalarini bosh muharriri Salim DONIYOROV suhbatini

3









